

**DAVLAT ISHLAB CHIQRISH KORXONALARINING IQTISODIY
HOLATI TAHLILI(NKMK misolida)**

Savriyeva Madina Xakimovna

Navoiy innovatsiyalar universiteti, iqtisodiyot

fanlari falsafa doktori (PhD)., v.v.b.dots

savrievamadina@gmail.com

Mavlonova Bonu Qahramon qizi

Navoiy innovatsiyalar universiteti

“Iqtisodiyot “ yo ‘nalishi, 1-bosqich talabasi

kahramonkuldasov@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada davlat ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy holatini tahlil qilish masalalari ko‘rib chiqilgan. Tadqiqot obyekti sifatida Navoiy kon-metallurgiya kombinati faoliyati o‘rganildi. Korxonaning ishlab chiqarish hajmi, moliyaviy ko‘rsatkichlari va investitsiya faoliyati iqtisodiy tahlil usullari yordamida baholandi.

Tayanch so‘zlar: iqtisodiy tahlil, davlat korxonasi, sanoat ishlab chiqarishi, rentabellik ko‘rsatkich, investitsiya, modernizatsiya, oltin sanoati.

Аннотация: В данной статье рассматриваются вопросы анализа экономического состояния государственных промышленных предприятий. В качестве объекта исследования изучена деятельность Навоийского горно-металлургического комбината. С помощью методов экономического анализа оценены объем производства, финансовые показатели и инвестиционная активность предприятия.

Ключевые слова: экономический анализ, государственное предприятие, промышленное производство, индекс рентабельности, инвестиции, модернизация, золотодобывающая промышленность.

Abstract: this article examines the issues of analyzing the economic condition of state-owned industrial enterprises. The activity of the Navoi Mining and Metallurgical Combine was studied as the object of research. The production volume, financial indicators and investment activity of the enterprise were assessed using economic analysis methods.

Keywords: economic analysis, state-owned enterprise, industrial production, profitability index, investment, modernization, gold industry.

Bugungi kunda iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va sanoat korxonalarining samaradorligini oshirish O‘zbekiston iqtisodiy siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, davlat ishlab chiqarish korxonalarining moliyaviy

barqarorligi, ishlab chiqarish samaradorligi va eksport salohiyatini oshirish masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu jihatdan mamlakatning yirik sanoat korxonalaridan biri bo'lgan Navoiy kon-metallurgiya kombinati faoliyatining iqtisodiy holatini tahlil qilish muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. Hozirgi kunda davlat ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy samaradorligini oshirish milliy iqtisodiyot rivojida muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, tog'-kon sanoati mamlakat eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli **Navoiy kon-metallurgiya kombinati** faoliyatining iqtisodiy tahlili dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Mazkur tadqiqotning asosiy maqsadi davlat ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy holatini o'rganish, ularning ishlab chiqarish samaradorligini iqtisodiy tahlil qilish hamda bu jarayonni Navoiy kon-metallurgiya kombinati faoliyati misolida baholashdan iborat. Shuningdek, korxonaning moliyaviy ko'rsatkichlari, ishlab chiqarish hajmi va investitsiya faoliyatini tahlil qilish orqali iqtisodiy samaradorlikni oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan xulosalar va takliflar ishlab chiqish ham tadqiqotning muhim maqsadlaridan hisoblanadi.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan yirik davlat sanoat korxonalaridan biri bo'lgan Navoiy kon-metallurgiya kombinati tanlandi. Ushbu korxonada oltin qazib olish va qayta ishlash sohasida nafaqat O'zbekiston, balki jahon miqyosida ham yetakchi korxonalardan biri hisoblanadi. Korxonada mamlakat eksport tushumining katta qismini ta'minlaydi hamda davlat byudjetiga sezilarli darajada daromad keltiradi.

Korxonaning iqtisodiy faoliyati tahlili shuni ko'rsatadiki:

- ishlab chiqarish hajmining oshishi;
- eksport daromadlarining barqaror o'sishi;
- zamonaviy texnologiyalarni joriy etish;
- yangi konlarni o'zlashtirish

korxonaning iqtisodiy samaradorligini oshirib bormoqda. Kompaniyaning rasmiy ma'lumotlariga ko'ra- **EBITDA rentabelligi – 60 %** ni tashkil etadi. Bu ko'rsatkich korxonada daromadning katta qismi foyda sifatida qolayotganini bildiradi. **Sof tushum (daromad) – 7,4 milliard AQSH dollari. Oltin ishlab chiqarish hajmi (2024-yil ma'lumotiga ko'ra) – 3,1 million troya unsiya (taxminan 96,4 tonna). Bir unsiya oltin ishlab chiqarish tannarxi – o'rtacha 979 dollar.**

So'nggi yillarda NKMK tomonidan amalga oshirilgan modernizatsiya jarayonlari ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga xizmat qilmoqda. 2025-yilning birinchi yarim yilligidagi natijalarga ko'ra 60,8 trillion so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi, 47,8 tonna oltin qazib olindi, 1 190 ta yangi ish o'rni yaratildi. Natijada oltin qazib olish hajmi oshib, korxonaning xalqaro bozordagi raqobatbardoshligi kuchaymoqda. Iqtisodchi olim Shavkat Shodmonov ta'kidlaganidek:

“Korxonalar faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish ularning moliyaviy barqarorligini aniqlash, resurslardan samarali foydalanish va boshqaruv qarorlarini asoslashda muhim ahamiyatga ega.” Shu sababli NKMK faoliyatini iqtisodiy tahlil qilish davlat sanoat korxonalarining rivojlanish istiqbollari belgilashda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Yirik korxonalardan bo'lgan Navoiy kon-metallurgiya kombinati bozor iqtisodiyoti sharoitida davlat ishlab chiqarish korxonalarining iqtisodiy samaradorligi milliy iqtisodiyot rivojida muhim ahamiyatga ega. Iqtisodiy tahlil korxonaning moliyaviy holatini, ishlab chiqarish samaradorligini hamda resurslardan foydalanish darajasini baholash imkonini beradi. O'zbek iqtisodchi olimi Abdug'ani Vahobov iqtisodiy tahlilning ahamiyati haqida quyidagicha ta'kidlaganidek:

“Iqtisodiy tahlil korxonalar faoliyatini chuqur o'rganish, ichki imkoniyatlarni aniqlash va boshqaruv qarorlarini qabul qilishning muhim vositasidir.”

Navoiy kon-metallurgiya kombinati 1958-yil 1-sentabrda tashkil topgan. O'sha yili buyuk o'zbek shoiri, mutafakkir va davlat arbobi Alisher Navoiy nomi bilan atalgan Navoiy shahriga asos solindi. Minglab ishchilar, muhandislar, olimlar va rahbarlarning fidokorona mehnati tufayli Qizilqum sahrosida zamonaviy infratuzilmaga ega shaharlar barpo etildi. Bugun Navoiy, Zarafshon va Uchquduq shaharlari sahro bag'ridagi yashil vohalarga aylangan. “Muruntov” konining ochilishi xalqaro geologik jamoatchilik tomonidan XX asrning ikkinchi yarmidagi qimmatbaho metallar sohasida qilingan eng katta kashfiyot sifatida tan olindi. Oltin zaxiralarining ko'pligi, ma'dan qazib olish texnologik sharoitlarining qulayligi uchun kon “Asr mo'jizasi” deb tan olindi. 1967-yil 1-martda “Muruntov” konida birinchi portlatish amalga oshirildi va konni ochiq usulda o'zlashtirish boshlandi. 1969-yil 21-iyulda 2-gidrometallurgiya zavodida “Muruntov” konida qazib olingan ma'dandan 11 kg. 820 gr. bo'lgan birinchi oltin yombisi olindi. Qizilqum hududi O'zbekistondagi eng yirik oltin qazib oluvchi vohaga aylandi. Mustaqillik yillarida NKMK tomonidan jahon bozorida raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarish uchun yangi ishlab chiqarish korxonalari ishga tushirildi, eng zamonaviy texnologiyalar va ilm-fanning so'nggi yutuqlari amaliyotga tatbiq etildi.

Muhtaram Yurtboshimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari bilan qabul qilingan dasturlar, yaratib berilayotgan shart-sharoitlar tufayli kombinatda so'nggi sakkiz yilda amalga oshirilgan yirik investitsion loyihalar asosida zamonaviy korxonalar – 4 ta yangi zavod va boshqa ko'plab tarmoqlar ishga tushirildi. Ishlab chiqarish tegirmonlari va zarur jihozlarni montaj qilish, ishga tushirish va binolarni bunyod etish ishlari bir paytning o'zida olib borilishi tufayli loyihalarni foydalanishga topshirish muddatini qisqartirish imkonini berdi. Shu tufayli so'nggi yillarda Navoiy kon-metallurgiya kombinati jahonda oltin ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar to'rttaligidan joy oldi.

Kombinat yer osti boyliklari zaxiralarini geologik qidirish, qazib olish va qayta ishlashdan to tayyor mahsulot olishgacha bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari to'liq amalga oshiriladigan yirik sanoat klasteridir. NKMKning "999,9" sofligidagi oltin quymalari jahonning qimmatbaho metallar bo'yicha birjalarida O'zbekistonning brendiga aylandi. Bugungi kunda NKMK dunyodagi eng yirik oltin ishlab chiqaruvchi kompaniyalar qatoriga kiradi. So'nggi yillarda korxonalar ishlab chiqarish hajmi barqaror o'sib bormoqda. 2024–2025 yillarda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi sezilarli darajada oshdi. Natijada korxonaning ishlab chiqarish samaradorligi oshib, xalqaro bozorda raqobatbardoshligi kuchaydi. Korxonaning moliyaviy natijalari yuqori darajada barqaror hisoblanadi. Iqtisodiy tahlil natijalariga ko'ra:

- daromad hajmi yuqori
- sof foyda ko'rsatkichlari ijobiy
- rentabellik darajasi barqaror

Iqtisodiy tahlil nuqtai nazaridan korxonaning:

- aktivlar rentabelligi
- sotuv rentabelligi
- kapital rentabelligi

ijobiy natijalarni ko'rsatmoqda. Bu esa korxonalar resurslardan samarali foydalanayotganini anglatadi. Korxonada investitsiya faoliyati faol olib borilmoqda. Investitsiya dasturlari quyidagi yo'nalishlarga qaratilgan:

- ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish
- yangi texnologiyalarni joriy etish
- konlarni chuqurlashtirish
- energiya tejankor texnologiyalarni qo'llash

Ushbu loyihani amalga oshirishda NKMK 219,5 million dollar investitsiya o'zlashtirildi. Bu ishlab chiqarish tannarxini kamaytirish va foyda miqdorini oshirishga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, yirik soliq to'lovchi korxonalar hisoblangan Navoiy konmetallurgiya kombinatida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar mamlakat taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Baquvvat iqtisodiy potensialga ega kombinatimizning ishlab chiqarish quvvatining sezilarli darajada oshishi, zamonaviy kompaniyalar qatoridan muhim joy olishi kelgusida xalqaro hamjamiyatdagi obro'yini oshiradi. Kombinatni isloh qilish bo'yicha tizimli ishlar olib borildi. Jumladan, zamonaviy gidrometallurgiya zavodlari, yangi kon-shaxta va boshqa obyektlarni qurish, korxonalar quvvatlarini oshirish hisobiga korxonada ishlab chiqarish hajmi, iqtisodiy ko'rsatkich va natijalar yildan-yilga o'sib borayapti. NKMKning yuqori rentabellik ko'rsatkichlariga erishishiga boy tabiiy resurslar, zamonaviy texnologiyalar, katta ishlab chiqarish hajmi, eksportning yuqori ulushi, davlat qo'llab-quvvatlovi va samarali boshqaruv tizimi kabi omillar sabab bo'lmoqda. Ushbu omillar

korxonaning nafaqat O'zbekistonda, balki jahon oltin sanoatida ham yetakchi o'rin egallashiga imkon yaratmoqda. NKMKda yuqori rentabellik ko'rsatkichlariga erishish sabablari:

- boy tabiiy resurs bazasining mavjudligi NKMK faoliyati asosan oltin qazib olishga ixtisoslashgan bo'lib, "Muruntov koni"ga egalik qiladi. Ushbu kon oltin zaxiralari bo'yicha dunyodagi eng yirik konlardan biri hisoblanadi. Katta zaxiralar ishlab chiqarish hajmini oshirish va tannarxni kamaytirish imkonini beradi, bu esa korxonaning rentabelligini oshiradi.

- zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalar NKMK ishlab chiqarish jarayonida zamonaviy kon qazish va metallurgiya texnologiyalaridan foydalanadi. Avtomatlashtirilgan uskunalar, raqamli monitoring tizimlari va zamonaviy qayta ishlash texnologiyalari ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, xarajatlarni kamaytiradi.

- eksport yo'nalishining kuchliligi NKMK mahsulotlarining katta qismi eksport qilinadi. Jahon bozorida narxlarning yuqoriligi korxonada daromadining ortishiga va rentabellikning yuqori bo'lishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.ngmk.uz/uz/>
2. <https://kapital.uz/uz/nkmkning-6-oylik-korsatkichlari/>
3. <https://www.uzdaily.uz/uz/nkmk>